INGLIZ TILI DARSLARIDA TOPONIMLAR ASOSIDA TALABALARNING LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: TEMATIK BLOK VA BOSQICHLI MASHQLAR TIZIMI

Komilova Muxtaramxon Xotamjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada ingliz tili yo‘nalishi talabalarining lingvokulturologik kompetensiyasini toponimik birliklar asosida rivojlantirish metodikasi yoritilgan. “Mamlakatshunoslik” fani doirasida ishlab chiqilgan 24 soatlik tematik blok tarkibi, to‘rt bosqichli mashqlar tizimi hamda baholash mezonlari taqdim etilgan. Metodikaning samaradorligi uch oliy ta’lim muassasasida 359 nafar talaba ishtirokida o‘tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologik kompetensiya, toponim, onomastik birlik, mamlakatshunoslik, tematik blok, bosqichli mashqlar, madaniyatlararo muloqot.

Globallashuv sharoitida chet tilini o‘qitish jarayoni faqat lisoniy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy lingvodidaktikada til madaniyatdan ajratilmagan holda o‘rgatiladi, chunki til birliklari muayyan xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlar tizimini o‘zida saqlaydi. C.Kramsch bu jarayonni “uchinchi makon” tushunchasi orqali izohlaydi: chet til o‘rganuvchi ona tili va o‘rganilayotgan til madaniyatlari oralig‘ida yangi madaniy maydon hosil qiladi [4]. M.Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modelida esa madaniy bilim, talqin, kashf etish, madaniy sezgirlik va tanqidiy madaniy ong yagona tizim sifatida talqin etiladi [2].

Toponimlar mazkur maqsad uchun alohida didaktik salohiyatga ega. Joy nomi bu shunchaki geografik belgi emas, balki tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va til taraqqiyoti izlarini saqlovchi madaniy kod. E.Ekwall va A.D.Mills lug‘atlarida ingliz toponimlarining etimologik qatlamlari kelt, lotin, qadimgi ingliz va skandinav manbalari batafsil yoritilgan [3; 5]. C.Hough aholi punkti nomlarining shakllanish qonuniyatlarini tahlil qilsa, S.Taylor joy nomlarini tadqiq etishning metodologik asoslarini bayon etadi [7; 8]. O‘zbek toponimikasida S.Qorayev va T.Nafasovning ishlari xuddi shunday tizimli tahlil namunasini beradi [6; 9].

Ushbu nazariy asoslarga tayangan holda “Mamlakatshunoslik” fani doirasida toponimlar bo‘yicha 24 soatlik tematik blok ishlab chiqildi. Blok tarkibi quyidagicha taqsimlandi:

1-jadval

Toponimlar tematik blokining tuzilishi

Mavzu	Soat	Darslar	Asosiy metod
London toponimlari	6	3	Xarita ishlari, etimologik tahlil
Angliya shahar nomlari	6	3	Taqdimot, qiyosiy jadval
Shotlandiya va Uels toponimlari	4	2	Munozara, matn tahlili
Tarixiy toponimlar tahlili	4	2	Loyiha usuli
Qiyosiy tahlil (ingliz — o‘zbek)	4	2	Klaster, guruh ishi
JAMI	24	12	

Blok mazmuni to‘rt bosqichli mashqlar tizimi orqali o‘zlashtiriladi. Birinchi bosqich - tanib olish (matching): talabalar toponimni uning ma’nosi yoki hududi bilan moslashtiradilar. Ikkinchi bosqich - tushunish (gap-fill): matn kontekstida toponimning madaniy mazmuni aniqlanadi. Uchinchi bosqich - qo‘llash (production): talabalar toponimlardan foydalangan holda taqdimot tayyorlaydilar va madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini modellashtiradilar. To‘rtinchi bosqich - o‘z-o‘zini baholash (self-assessment): o‘rganilgan material bo‘yicha refleksiya yuritiladi.

Bosqichli tizimning amaliy namunasi sifatida “Name Behind the Culture” mashg‘ulotini keltirish mumkin. Unda talabalar Oxford, Cambridge, Thames kabi nomlarning etimologik asosini aniqlaydilar va ularni o‘zbek toponimlari bilan qiyoslaydilar. Masalan, Oxford (“ox” + “ford” — ho‘kizlar kechuvi) va Buxoro yoki Registon nomlarining shakllanish mantiqi taqqoslanganda, talabalar ikkala madaniyatda ham joy nomi mahalliy geografik yoki ijtimoiy voqelikdan kelib chiqishini anglaydilar. Bunday qiyoslash A.V.Dybo va hammualliflari turkiy joy nomlarining tarixiy qatlamlarini ajratishda qo‘llagan yondashuv bilan uyg‘unlashadi [10].

Metodikaning samaradorligi 2024–2025 o‘quv yilida Farg‘ona davlat universiteti,

Qarshi davlat universiteti va Buxoro davlat universiteti talabalari ishtirokida tekshirildi. Tajriba-sinov ishlariga jami 359 nafar talaba jalb qilindi (tajriba guruhi n = 75, nazorat guruhi m = 284). Eksperimentgacha talabalarning 7,8 foizi “a’lo”, 37,0 foizi “o‘rta”, 55,2 foizi “past” darajani ko‘rsatgan bo‘lsa, eksperimentdan so‘ng “a’lo” daraja ulushi 25,1 foizga ko‘tarildi, “past” daraja esa 198 nafardan 133 nafarga kamaydi. Tajriba guruhida “past” daraja ulushi 53,3 foizdan 17,3 foizgacha qisqardi.

Natijalarning statistik ishonchliligi Pirson va Styudent mezonlari bilan tasdiqlandi: $\chi^2 = 17{,}32 > 7{,}815$ ($k = 3$; $\alpha = 0{,}05$), $T = 4{,}61 > 1{,}96$. Ikki guruh uchun aniqlangan ishonch oraliqlari (tajriba: 2,99–3,33; nazorat: 2,53–2,77) bir-birini qoplamaydi, bu esa guruhlar orasidagi farqning tasodifiy emasligini ko‘rsatadi [1].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, toponimik birliklar “Mamlakatshunoslik” fanini faktografik ma’lumot berish darajasidan madaniy tahlil darajasiga ko‘taradi. Talaba joy nomini yodlab olmaydi, balki uning ortidagi tarixiy va ijtimoiy mazmunni ochadi. Bu esa nafaqat lingvokulturologik bilimlarni, balki madaniyatlararo sezgirlik va tanqidiy madaniy ongni ham shakllantiradi. Ishlab chiqilgan tematik blok va mashqlar tizimi oliy ta’lim muassasalarida “Mamlakatshunoslik”, “Lingvokulturologiya” va “Ingliz tili amaliy kursi” fanlarini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Грабарь М.И., Краснянская К.А. Применение математической статистики в педагогических исследованиях: непараметрические методы. – Москва: Педагогика, 1977. – 136 с.

2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence: Revisited. – 2nd ed. – Bristol: Multilingual Matters, 2021. – DOI: 10.21832/9781800410251.

3. Ekwall E. The Concise Oxford Dictionary of English Place-Names. – 4th ed. – Oxford: Clarendon Press, 1960. – 546 p.

4. Kramsch C. Language and Culture. – Oxford: Oxford University Press, 1998. – 134 p.

5. Mills A.D. A Dictionary of British Place-Names. – Oxford: Oxford University Press,

2003. – 519 p.

6. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988. – 287 b.

7. Hough C. Settlement Names // The Oxford Handbook of Names and Naming / ed. by C. Hough. – Oxford: Oxford University Press, 2016.

8. Taylor S. Methodologies in Place-Name Research // The Oxford Handbook of Names and Naming / ed. by C. Hough. – Oxford: Oxford University Press, 2016.

9. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978. – 128 b.

10. Dybo A.V., Baibossyn A.M., Kenzhalin K.K. [et al.] Revisiting the Mongolian Stratum of Kazakh Place Names // Voprosy Onomastiki. – 2024. – Vol. 21, No. 1.

